

## ILK O'SPIRINLIK YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MASALALARI

**Shadmanova Muslimaxon Djamatiddinovna**

*Guliston tumani 17-umumi o'rta ta'lif maktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** Abu Nasr Al-Forobiyning- “Insonga uni go`zal amallar qilish uchun yo`naltiradigan odat mahsuli bo`lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xattiharakatlarda me’yor qay darajada saqlangani bilan bog’lanadi” degan fikriga tayangan holda, kelajak poydevorini qurish avval o`zimizni oiladan boshlashni yodda tutishimiz lozimligini, o`sib kelayotgan yosh avlodlarimizning xulqiga go`zallik mahsuli bo`lgan tarbiya fazilatini namoyish qilishda biz kattalar o’rnak bo`lishimiz ayni muddaodir.

**Kalit so`zlar:** ekstremal, stress, krizis, xavfli xulq-atvor, adrenalin, treyslerfing, rufing, digger, stalking

### **KIRISH**

Ilk o’spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha bo`lgan taraqqiyashish davrini o`z ichiga oladi. Aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq me’yorlariga mos bo`lishi ularning komil inson bo`lib yetishishlariga zamin yaratadi, uzuksiz ta’lim-tarbiya tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Voyaga yetmagan yoshlar orasida deviant xarakatlarni vujudga keltiruvchi biologik, genetik, psixofiziologik omillar mavjud. Bundan tashqari xulqida krizis simptomlari vujudga kela boshlaydi:

- Bola turli xil vaziyatlarda o’zini anglashga va o’zini ko’z-ko’z qilishga harakat qiladi;
- O‘zining do’stlari orasida ..men.. ini izlashga berilib ketishi yoki aksincha odamovi bo‘lib qoladi;
- Atrofdagilar bilan doimiy nizoli vaziyatlarda bo‘lishi;
- Darslarda ishtirok etishni xohlamaslik;
- Mabitabda tengdoshlari, o‘qituvchilari bilan tez-tez ziddiyatga borishi;
- Ijtimoiy tarmoqlarga tobeklik kuzatiladi;

Bizga ma'lumki, ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda (*Selfi qimmatga tushdi-Chirchiqda poyezd ustida selfi qilmoxchi bo'lgan o'quvchilarni tok urdi yoki Oyog`idan ayrılgan bebosqlar- Farg`onada yurib ketayotgan poyezd ustidan ikki nafar o'spirin qor ustiga sakradi*) va yana shunga o'xshash xabarlar tobora yangi tusini olmoqda. Hozirgi davrda o'spirinlar hamda o'smirlar o'rtaida me'yordan o'g'ishish xususiyatlari xavfli xulq-atvorga kuchayib bormoqda.

Xavfli xulq-atvor — bu odamlarning o'zлari yoki boshqalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlari. Ularga jismoniy zo'ravonlik, psixik zo'ravonlik, antisotsial xulq-atvor yoki jamoat joylarida qonuniy normalarni buzish kabi narsalar kirishi mumkin. Bu xulq-atvor insonning o'zini yoki atrofdagilarni xavf ostiga qo'yishi mumkin, shundan kelib chiqib, uning ijtimoiy va psixologik oqibatlari bo'lishi mumkin. Xavfli me'yordan og'ishish zamonaga qarab eksperimentdan o'tkazilmagan turli ekstremal mashg`ulotlarga qiziqib borishi yoshlari o'rtaida tahdid solmoqda. Misol tariqasida muhokama qiladigan bo`lsak: *Xatarli selfi* – o'zini fotosuratga olishning bir turi bo'lib, xavfli suratga olish joyi yoki obyekti bilan bog'liq. (*masalan, qurilish kranida bir qo'lda ko'rinish, o'qotar quroq bilan suratga tushish*). Bu odamlar o'zlarini xavfli yoki ekstremal vaziyatlarda tasvirga olishni maqsad qilgan fotosuratlardir. Ularda ko`pincha o'zini ijtimoiy ma'qullanishini, tan olinish va diqqatga sazovor bo'lish hislari bilan bog'liq bo'lgan emotsional holatlar mavjud bo'lishi e'tibordan holi emas. Ushbu selfilar ko`pincha yuqori balandliklarda, xavfli joylarda yoki xavfli harakatlar paytida olinadi. Bu ko`rinishdagi tasvirga olish jarayoni yoshlari o'rtaida juda mashhur bo'lgan va ba'zan jiddiy natijalarga olib kelishi mumkin. O'spirinlar ko`pincha binolar, tog'lar yoki boshqa baland joylarda olingan selfilar, tomdan yoki yuqori nuqtalarda tasvirga olishadi, xavfli hayvonlar bilan, masalan, qushlar, yirtqichlar yoki boshqa xavfli muhitlarda tasvirga olishadi. Qonuniy masalalarda ham taqozo etish mumkinki, ba'zi joylarda xavfli selfilar olish qonuniy masalalarga olib kelishi mumkin, chunki u joylar ruhsatsiz kirishni taqiqlaydi.

Dunyo psixolog ekspertlarining ta`kidlashicha, faol rivojlanayotgan yoshlarning turli ekstremal mashg`ulotlarini bir nechta turga hamda psixologik hislarning xususiyatlari bilan bog'lash mumkin:

Treyslerfing – poyezd vagonlari tomida, vagonlar orasida, vagon tagida, oxirgi vagonda osilib yurish. Unga bog'liq bo'lgan xususiyatlar: *Qayg'u va xavf hissi-treyslerfing* jarayonida yuqori tezlik va xavfli vaziyatlar odamda kuchli qayg'u va qo'rquv hissini keltirib chiqaradi. Bu hissiyotlar adrenalin ishlab chiqarishga olib keladi, bu esa "jang yoki qochish" reaksiyasini kuchaytiradi. *Adrenalin va qoniqish-* ekstremal vaziyatlarda bo'lish adrenalin ishlab chiqaradi, bu esa qoniqish va baxt hissini keltirib chiqaradi. Ko'p odamlar bu hissiyotlardan zavqlanadilar va bu ularga hayotga yangicha qarash imkonini beradi. *O'z-o'zini nazorat qilish-* ushbu faoliyat davomida qatnashchilar o'zlarini nazorat qilishni, muvozanatni saqlashni va tezkor qarorlar qabul qilish singari jarayonlarni amalga oshirishadi. *Stress va tasalli-* ba'zi odamlar uchun treyslerfing stressni kamaytirish va hayotdagi tashvishlardan qochish usuli bo'lishi mumkin. Ekstremal vaziyatlar ularga boshqa muammolardan chalg'itadi.

Rufing ("tomlarda yurish") – binolarning yuqori nuqtalari bo'y lab harakatlanish va/yoki u yerlarda turli xavfli harakatlarni bajarish. Uning xususiyatlari: *Emotsional charchoq-* uzoq muddatli boshqaruv va stressdan so'ng hissiy charchoq va bezovtalik paydo bo'lishi mumkin. *Izolatsiya hissi-* stress tufayli shaxslar o'zlarini yolg'iz his qilishlari mumkin, bu esa ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi mumkin. *O'z-o'zini baholashdagi noaniqlik* - o'z qobiliyatlariga nisbatan ishonch pasayishi mumkin. *Stressni kamaytirish-* ekstremal faoliyatlar, shu jumladan rufing, ko'plab odamlar uchun stressdan qochish usuli bo'lib xizmat qiladi. Bu, kundalik hayotdagi tashvishlardan chalg'itadi va eyforiya hissini keltirib chiqaradi

Diggerlik – sun'iy yerosti inshootlarini tadqiq qilish (*masalan, bombadan saqlanish uchun yer osti qurilmalari, metroning yopiqbekatlari*). Xususiyatlariga ko`ra: *Tugallanmagan ishlar-* ko`plab qiziqishlar bilan shug'ullanish, natijada bironbir narsani tugatishdan ko`ra, ko`proq o`zgaruvchanlik va tugallanmagan ishlar olib kelishi. *Real hayotdan uzoqlashish-* diggerlik jarayonida o`zini real hayotdan uzoqlashishgandek his qilinishi va jamoat bilan aloqalar yo`qotilishi mumkin. *Tanqidga chidamlilikning pasayishi-* o`z qiziqishlariga chuqr berilish, tanqidga nisbatan sezgirlikni oshirishi va salbiy fikrlarga qiyinlik bilan munosabatda bo'lishi mumkin. *O'z-o'zini baholashdagi*

qiyinchilik- diggerlik jarayonida o`z qobiliyatları yoki yutuqlari to`g`risida shubhalanishlar paydo bo`lishi.

Stalkinging (*stalking, stalkerlik*) tashlandiq, qurib bitkazilmagan va qo`riqlanadigan obyektlarni tadqiq qilish. Unga ko`ra: *Adrenalin va xavf-* stalkerling ko`pincha xavfli sharoitlarda (masalan, tark etilgan binolarda yoki muhofaza qilinmagan joylarda) harakat qilishni talab qiladi. Bu xavf hissi ko`plab odamlar uchun qiziqarli bo`lib, adrenalin ishlab chiqaradi. *Stressdan qochish-* ko`plab odamlar stalkerlingni stressdan qochish yoki hayotning oddiyligidan chalg`itish usuli sifatida ko`radi. Bu xavfli va qiziqarli tajriba hayotning monotonligini yengib o`tishga yordam beradi. *Emotsional holat-* ushbu faoliyat shaxsga kuchli hissiyotlar — hayajon, qiziqish, qo`rquv — his qilish imkonini beradi. Stalkerling paytida shaxs stressli vaziyatlarga duch kelishi mumkin, shuning uchun psixologik barqarorlikni saqlash muhimdir. Statistika bo`yicha yuqori xavf-xatar bilan bog`liq bo`lgan faoliyat turlariga jalb qilinganlik darajasi:

- Yosh qonuniyatları
- O`smirlarda moda yo`nalish bo`lgani uchun
- Bo`sh vaqt tizimining samaradorligi
- Oiladagi munosabatlar xarakteri
- O`smirning shaxsiy xususiyatlari

## XULOSA

Shunday ekan, yangi davr har bir insondan o`z ichki imkoniyatlarini to`g`ri baholashni, shuningdek, psixologik bilimlar orttirish bilan onalar va ta`lim muassasa tashkilotlari bolalarning psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Kelajakda insonning qizg`in va o`zgarishlarga boy hayoti endilikda undan psixik hodislar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona ish yuritish zarurligini talab qilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Минин А.Я., Краев О.Ю. Актуальные проблемы девиантного поведения несовершеннолетних и молодёжи-М.: Прометей, 2016.,
2. Розенова М.И. Жизнь в мегаполисе: обучение пространственному поведению как психологический механизм усвоения социально-культурных норм взаимодействия // Психология обучения. 2016.,

3. Андронникова, О. О. Основные характеристики подростков с самоповреждающим виктимным поведением / О. О. Андронникова // Вестник Томского государственного университета. – 2015. – № 332.,
4. Deviant xulq-atvor psixologiyasi/ Xakimova I.M./ O`quv qo`llanma-Toshkent 2014.,
5. Deviant xulq-atvor psixologiyasi (darslik)/ Xudoyqulova G.B./Toshkent 2024.